

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муяддинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



PORTFELLI XORIJYIY INVESTITSIYALARНИNG MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Kamilova Iroda Xusniddinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Bank ishi va investitsiyalar kafedrasи dotsenti, PhD

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun portfelli xorijiy investitsiyalarni jaib qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtidan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, rag'batlantirish yo'lli bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jaib qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Portfelli xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, asosiy kapital, globallashuv, xorijiy investitsiyalar, investitsiya faoliyati, investitsiya loyihasi, investitsiya resurslari, investitsiya faoliyati, davlat obligatsiyasi.

Abstract: The policy of attracting portfolio foreign investments for the development of priority sectors of the economy in the Republic of Uzbekistan is aimed at effective use of available funds, time and opportunities, effective deployment of resources based on existing conditions, and in this way, raising the economy of the republic, its integration into the world economic system, encouraging investments in the economy. aimed at attracting priority sectors and using them effectively.

Key words: Portfolio foreign investment, investment policy, fixed capital, globalization, foreign investment, investment activity, investment project, investment resources, investment activity, government bond.

Аннотация: Политика привлечения портфельных иностранных инвестиций для развития приоритетных отраслей экономики Республики Узбекистан направлена на эффективное использование имеющихся средств, времени и возможностей, эффективное размещение ресурсов исходя из существующих условий и, таким образом, повышение экономики республики, ее интеграция в мировую экономическую систему, стимулирование инвестиций в экономику, направленных на привлечение приоритетных отраслей и их эффективное использование.

Ключевые слова: Портфельные иностранные инвестиции, инвестиционная политика, основной капитал, глобализация, иностранные инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционный проект, инвестиционные ресурсы, инвестиционная деятельность, государственные облигации.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jaib etish choralarini milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan¹.

Portfelli xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investiyalarni jaib qilish ko'lamini kengaytirish imkonini bergen holda, maqsadli investitsiya oqimining kirib kelishini ta'minlaydi va investitsion siyosatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshiradi. Shu bilan birga investitsion siyosatning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish choralarini ko'radi va amalga oshiradi, iqtisodiy, huquqiy normalarni, huquqiy himoya vositalarini yaratadi, milly fond bozorini rivojlantirishda, rezidentlarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan xalqaro operatsiyalarini rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni Farmoni. //www. lex. uz.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning passiv strategiyasida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan operatsion chiqimlar aktiv strategiyaga nisbatan kam bo'ladi.

J. Tobinning portfelli tahlil nazariyasiga ko'ra, er, qo'zg'almas mulk yuqori daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lishi bilan birga, yuqori risk darajasiga ega. Kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari yuqori riskli aktiv hisoblanadi, chunki ushbu investitsiyalar past yoki yuqori darajadagi noaniqlik va beqarorligi bilan ajralib turadi. Riskli aktivlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida kompaniyalar va banklarning pul mablag'lari portfel ko'rinishida taqsimlanadi².

V. Aksenovning xulosasiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning aktiv strategiyasining muhim o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- portfeli shakllantirish uchun zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlarni tanlash;
- moliyaviy aktivlarni sotib olish yoki sotish muddatlarini aniqlash³.

G'arb mamlakatlari bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning svopingga asoslangan quyidagi to'rt shaklidan keng foydalanimoqda⁴:

1. Sof daromadni tanlab olish shakli.

Mazkur shaklning mazmuni shundaki, nominali bir-biridan sezilarli darajada farq qilmaydigan va baholari bo'yicha bir xil bo'lgan ikki qimmatli qog'oz o'zaro ayrbosh qilinadi. Buning natijasida daromadlilik darjasasi past bo'lgan qimmatli qog'oz sotiladi va uning o'rniga daromadliligi nisbatan yuqori bo'lgan qimmatli qog'oz sotib olinadi.

2. Almashtirib qo'yish shakli.

Ushbu shaklda bir-biriga o'xshash, lekin bir xil bo'lmagan ikkita qimmatli qog'oz ayrboshlanadi. Mazkur strategiya qo'shimcha daromad olish maqsadida qo'llaniladi.

3. Svop sektori shakli.

Ushbu shakl svopingning eng murakkab shakli hisoblanadi. Bunda investor iqtisodiyotning turli sektorlariga mansub bo'lgan emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni muddatiga, daromadliliga ko'ra ayriboshlaydi.

4. Foiz stavkalarini tahlil qilish va proqnoz qilishga asoslangan shakli.

Mazkur shaklda foiz stavkalari pasayayotganda qimmatli qog'ozlar portfelining muddati uzaytiriladi, foiz stavkalari oshayotganda qimmatli qog'ozlar portfelining muddati qisqartiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya uslublaridan foydalanildi. Maqlada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islam moliya instrumentlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

NATIJALAR

Xalqaro obligatsiyalarning milliy valyutada chiqarilishi valyuta xatarlarini kamaytirishga xizmat qilish bilan birga kelajakda ichki moliya bozoriga, jumladan davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni jalb qilish uchun zamin yaratadi.

2021-yilda portfel investitsiya operatsiyalari saldosi manfiy ko'rinishda shakllanib, 2,0 mlrd. dollarni tashkil qildi. Mazkur holat hisobot davrida xalqaro moliya bozorlarida jami 5 ta xalqaro obligatsiyalar joylashtirilishi bilan izohlanadi.

Shundan:

- Davlat obligatsiyasi 635 mln. doll. (3,9 foiz stavkasi bilan 10 yil muddatga);
- Davlat obligatsiyasi 2,5 trln. so'mga (14,0 foiz stavkasi bilan 3 yillik muddatga);
- "O'zNeftegaz" AJ obligatsiyasi 700 mln. doll. (4,75 foiz stavkasi bilan 7 yil muddatga);
- "UzAvto Motors" AJ obligatsiyasi 300 mln. doll. (4,85 foiz stavkasi bilan 5 yil muddatga);
- "Ipoteka bank" AJ obligatsiyasi 785 mlrd. so'm (16,0 foiz stavkasi bilan 3 yil muddatga)⁵.

2 Тобин Дж. Денежная политика и экономической рост. – М.: Либроком, 2010. – С. 111–112.

3 Аксенов В. С., Зубов Й. О. Формирование и управление инвестиционным портфелем в условиях финансового кризиса //Финансы и кредитю – 2010. – №7ю – С. 22–28.

4 Hirschev, M. & Nofsinger, J. Investments: analysis and behavior. McGraw-Hill Education, 2008. – P. 237.

5 2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi//www.cbu.uz.



Moliaviy hisobda majburiyatlar bo'yicha operatsiyalar tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan tashqi dunyo oldidagi majburiyatlar bo'yicha oqimlar "Ssuda va qarzlar", "To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar" hamda "Portfel investitsiyalar" komponentlariga to'g'ri keladi. 2018-yildan ssuda va qarzlarning ulushi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarining ulushidan ko'proq bo'ldi. Ushbu jarayon sanoat va hududlarni rivojlantirish bilan bog'liq davlat dasturlarini moliyalashtirish maqsadida davlat boshqaruvi sektori tomonidan olingen qarzlar hajmining oshishi bilan izohlanadi. Shuningdek, 2018-yildan boshlab MTB doirasida to'lovlarining ko'payishi sababli to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmi qisqarishi, hamda 2020-yilda pandemiya sabab "Ssuda va qarzlar" komponenti o'sishi o'tgan yillarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. 2021-yil natijalariga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarining sof o'sishiga qaramay, bank va boshqa sektorlar tomonidan tashqi qarzlarning faol jalb etilayotganligi, "Ssuda va qarzlar" komponenti tashqi dunyo oldidagi majburiyatlarning sof o'sishida ko'p ulushga (68 foiz) ega bo'ldi.

TAHLIL

O'zbekiston Respublikasining sof investitsion pozitsiyasi 2021-yil boshiga nisbatan 17 foizga yoki 3,5 mlrd. dollarga qisqarib, joriy yilning 1-yanvar holatiga 16,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, mamlakatning chet el valyutasidagi aktivlari 70,4 mlrd. dollarni, tashqi majburiyatlarining hajmi esa 53,6 mlrd. dollarga teng bo'ldi. Ko'rib chiqilayotgan davrda sof investitsion pozitsiyaning o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatdiki, nooperatsion o'zgarishlarning ijobjiy shakllanishiga qaramay to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalari bo'yicha majburiyatlar hajmining o'sishi, shuningdek ssudalar va qarzlar oshishi sof investitsion pozitsiyasiga salbiy ta'sir etdi. Xalqaro investitsion pozitsiyaning iqtisodiyot sektorlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021-yil yakunlariga ko'ra, davlat boshqaruvi sektori va boshqa sektorlar "sof kreditor", bank sektori esa "sof qarzdor" turkumiga oid bo'lganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan marosimdagি nutqida e'tirof etganlaridek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi xalqaro tuzilmalar bilan aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichda davom ettirilmoqda.

Xalqaro reyting agentliklarining eng yuqori reyting bahosiga (AAA) ega bo'lgan ITB banki jahon moliya tizimida o'z nufuziga ega bo'lgan xalqaro moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. E'tirof etish joizki, ushbu xalqaro tashkilotning 46-yillik yig'ilishini 2021-yilning 2-4-sentyabr kunlarida Toshkent shahrida o'tkazilishi ITB tomonidan O'zbekiston Respublikasiga bo'lgan ishonch va e'tiborning namoyon bo'lish shakli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagи PQ-4224-sonli "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytiriish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ITB bilan hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Mazkur Qarorga muvofiq, O'zbekiston va ITB o'rtaqidagi uzoq muddatli sherikchilikning asosiy yo'naliishlari qilib quyidagilar belgilandi:

- energetika, yo'l-transport, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, uy-joy qurilishi, bank-moliya tizimini hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini takomillashtirish hamda respublika tarmoqlari va hududlarini kompleks rivojlantirishning boshqa yo'naliishlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga ITB guruhining, shu jumladan, Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islom korporatsiyasi (XSRBIK), Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK), Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash korporatsiyasi (IEKSIK), Islom tadqiqot va ta'lim instituti mablag'larini jalb qilish;
- bank sektorida islomiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamg'armalarni tashkil etish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O'zbekistonda tatbiq qilish;
- respublika tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ularning eksport imkoniyatlarini mustahkamlash uchun XSRBIK, XISMK va IEKSIK moliyaviy resurslari va mahsulotlarini faol jalb etish;
- O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi salohiyatini oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash⁶.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, chet ellik investor investitsiya faoliyatini tugatgandan so'ng investitsiya faoliyatini tugatish natijasida olingen o'z aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda chet ellik investoring O'zbekiston Respublikasiga yoxud boshqa kreditorlarga nisbatan majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda erkin repatriatsiya qilish huquqiga ega.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagи PQ-4224-sonli "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytiriish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//www.lex.uz



Shuningdek, mazkur Qonunga ko'ra, agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo'lgan qonun hujjatlari chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e'tiboran o'n yil mobaynida qo'llaniladi. Investor o'zining investitsiya qilish shart-sharoitlarini yaxshilaydigan yangi qonunchilik qoidalarini o'z xohishiga ko'ra qo'llash huquqiga ega. Xorijiy investitsiyani, xorijiy investorlarni jalg qilishda muhim omillardan bo'lib mamlakatdagi barqaror iqtisodiyot, huquqiy-investitsion muhit, siyosiy va iqtisodiy xavfsizlik, rivojlangan infratuzilma, malakali mutaxassislari, va albatta yaratilgan imtiyozlar va kafolatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatda investitsion muhit ko'p jihatdan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga bog'liq.

2020-yilning 19-noyabr kuni Moliya vazirligi tomonidan umumiy hajmi 750 mln. dollar miqdoridagi suveren xalqaro obligatsiyalar ikki transhda – 10 yillik muddat bilan 555 mln. dollar dollarda va 3 yillik muddat bilan ilk bora milliy valyutamiz – o'zbek so'mida 2 trln. so'm miqdorida London qimmatbaho qog'ozlari bozorida (London Stock Exchange) muvaffaqiyatli joylashtirildi.

Bunda, 3 yillik milliy valyutadagi va 10 yillik dollardagi suveren xalqaro obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkalarning mos ravishda 14,50% (dastlabki foiz stavkadan 0,75% past) va 3,70% (dastlabki foiz stavkadan 0,55% past) darajasida belgilanishi hamda mazkur obligatsiyalarni xarid qilish talabining mos ravishda 5 trln. so'm va 3,8 mlrd. dollargacha yetishi xorijiy investorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi bilan bog'liq xatarlarning mo'tadir darajada baholanishini va respublika istiqboliga bo'lgan ishonchni oshib borayotganligini ko'rsatadi. Milliy valyutadagi xalqaro obligatsiyalardan tushgan mablag'lari (2 trln. so'm) Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) Barqaror rivojlanish maqsadlariga, jumladan kambag'allikka qarshi kurashish, sog'gom turmush tarzini va sifatlari ta'limni targ'ib qilish, gender tengligi ta'minlanishini jadallashtirish, toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, munosib mehnat sharoti va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash hamda infratuzilma barqarorligini oshirishga qaratilgan rivojlanish loyihalari uchun yo'naltiriladi⁷.

Qayd etish lozimki, 2021-yilda ham xususiy sektor tomonidan xalqaro bozorlarga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish orqali tashqi qarz jalg qilishda faoliyk kuzatilda. Xususan, "O'zbekneftegaz" AJ tomonidan qiymati 700 mln. dollar miqdoridagi qimmatli qog'ozlarni 4,75 foiz stavkasi bilan 7 yillik muddatga, "UzAuto Motors" AJ tomonidan qiymati 300 mln. dollar miqdoridagi qimmatli qog'ozlarni 4,85 foiz stavkasi bilan 5 yillik muddatga hamda "Ipoteka bank" AJ tomonidan 785 mlrd. so'm qiymatidagi qimmatli qog'ozlarni 16,0 foiz stavkasi bilan 3 yillik muddatga xalqaro moliya bozorida joylashtirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalg etish choralarini milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi;
- kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari yuqori riskli aktiv hisoblanadi, chunki ushbu investitsiyalar past yoki yuqori darajadagi noaniqlik va beqarorligi bilan ajralib turadi;
- respublikamiz iqtisodiyotiga portfelli xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda yetakchi mavqeyini O'zbekiston hukumati va davlat korxonalari egallaydi;
- xalqaro obligatsiyalarning foiz stavkalarni nibatan yuqori ekanligi ularga bo'lgan talabni shakllantirishning asosiy omili bo'lib qolmoqda.

Fikrimizcha, portfelli xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalg qilish ko'lamini kengaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Mamlakat qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro kapital bozoriga integratsiya qilishni ta'minlash orqali portfelli xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish uchun, birinchidan, milliy qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro fond bozorlariga integratsiya darajasini aniq ko'rsatuvchi mezonlarni belgilab olish kerak; ikkinchidan, milliy qimmatldi qog'zlar bozorining listingiga kirish talablarini xalqaro fond birjalarining listingiga kirish talablariga yuqori darajada mos kelishini ta'minlash lozim.
2. Muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritishni ta'minlash orqali O'zbekistonning suveren kredit reytingini yaxshilash orqali rezidentlarning yevroobligatsiyalarini investitsion jozibadorligini oshirish zarur.

Hozirgi davrda, birinchidan, inflyatsiya darajasini yuqori ekanligi va davlat byudjeti defitsitining katta ekanligi mamlakatning suveren kredit reytingini yaxshilash imkonini bermaydi; ikkinchidan, O'zbekistonning suveren kredit reytingi darajasi ancha past (S&P reyting agentligi tomonidan berilgan O'zbekistonning suveren kredit reytingi – BB-). Bu juda past reyting hisoblanadi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasining 2005–2021-yillar uchun to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi hamda tashqi qarzi//www.cbu.uz

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.